

**ANDIJON VILOYATIDA
MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARI FAOLIYATINING
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**



2021-YIL YAKUNI BO'YICHA

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

Mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Qolaversa, taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch-qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka ko'tarilgani bilan o'lchanishi xususida tarixiy misollar ko'p. Masalan, ingliz san'atshunos olimi F.R.Martin "Temuriylar singari san'ati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'lmagan", deb yozadi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir tashabbusi tafakkur tarzimiz, hayotga munosabatimiz, millat va xalqning buguni, ertasini, navqiron avlod ma'naviy kamolotini, odamlarimizning nurli kelajagini yaratishga qaratilgan ishlarimizning tub ildizlarini ham o'z ichiga qamrab oladi, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Konsepsiya besh bobdan iborat. Unda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimdagi muassasalar huquqiy maqomini belgilash, ijodkorlarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy bazasini, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish, madaniyat hamda san'at muassasalari moddiy-texnika imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini to'liq tatbiq etish, xalqaro festival va ko'rik-tanlovlarda chinakam iste'dod egalari ishtirokini ta'minlash, xorijiy tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi qator chora-tadbirlar belgilangan. Qaror asosida 2019-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar dasturi, 2019-2022 yillarda yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, kapital ta'mirlanadigan va to'liq jihozlanadigan madaniyat markazlarining manzilli ro'yxati ham tasdiqlandi.

Madaniy faoliyatda san'at sohasining ko'plab yo'nalishlarini to'liq qamrash, ularning faoliyatini to'g'ri baholash maqsadida soha mutaxassislarining maslahat organi bo'lgan tarmoq badiiy kengashlarini tuzishga muhtojlik mavjud. Endilikda tasarrufida madaniyat tashkilotlari bo'lgan davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, madaniyat tashkilotlari tomonidan teatr, musiqa va konsert faoliyati, sirk san'ati va tasviriy san'at, arxitektura va dizayn bo'yich



Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN
MADANIYAT MUASSASALARI SONI, (birlik)



Andijon viloyati bo'yicha 2021-yilda 3 ta teatr, 3 ta konsert tashkilotlari, 1 ta muzey, 23 ta madaniyat va istirohat bog'lari, 16 ta madaniyat markazlari hamda 29 ta axborot kutubxona markazlari aholiga madaniy xizmat ko'rsatgan.

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA PROFESSIONAL TEATRLAR FAOLIYATI




Hisobot yilida Andijon viloyatida 3 ta professional teatr jamoalari faoliyat ko'rsatgan. Jumladan : Andijon viloyat musiqa va drama teatri, Andijon viloyati yosh tomoshabinlar teatri va viloyat bolalar qo'g'irchiq teatri.

Teatr jamoalarida jami 83 nafar artist xodimlar xizmat qilmoqdalar. Ulardan 33 nafari yoki 39,8 % ni ayollar tashkil etadi. Jami 83 nafar artist xodimlardan 43 nafari drama, 24 nafari yosh tomoshabinlar va qolgan 16 nafari bolalar qo'g'irchoq teatrlarida faoliyat ko'rsatadilar.



Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATI PROFESSIONAL TEATRLARIDA QO'YILGAN SPEKTAKLLAR VA TOMOSHABINLAR SONI, (birlik)



2021-yil davomida Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan teatr jamoalari tomonidan 515 ta spektakllar (tomoshalar) namoyish etildi. Ularga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 95,6 ming nafardan iborat.

JANRLAR BO'YICHA TEATR TARMOG'I VA FAOLIYATI

Spektakllar soni, (birlik)

Tomoshabinlar soni, (ming kishi)

Drama

102

30,6

Yosh tomoshabinlar

200

40,0

Qo'g'irchoq

213

25,0


4

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI SONI, (birlik)


2021-yilda Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 3 ta tashkil etdi. Yil davomida ular tomonidan 405 ta konsert dasturlari tomoshabinlarga namoyish etildi. Konsertga 192,7 ming nafar tinglovchilar tashrif etdi.

Konsert tashkilotlarida jami 136 nafar artist xodimlar xizmar qilmoqda. Ulardan 46 nafari yoki 33,8 % ayollar hissasiga to'g'ri keladi



Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI FAOLIYATI



Andijon viloyatidagi 3 ta konsert tashkilotlaridan faoliyat turi bo'yicha bittasi filarmoniya va ikkitasi gastrol-konsert hisoblanadi. Filarmoniya artistlari tomonidan yil davomida 269 ta va gastrol-konsert jamoalari 136 ta konsert dasturlari namoyish etildi.

Konsert dasturiga tashrif buyurgan jami 192,7 ming nafar tinglovchilardan 96,8 ming nafari filarmoniya va qolgan 95,9 ming nafari gastrol-konsert ishtirokchilari hisoblanadilar.

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA MUZEYLAR FAOLIYATI

Andijon viloyatida 2021-yilda 1 ta muzey faoliyat ko'tsatgan. Yil davomida tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 149,5 ming nafardan iborat. Ulardan 73,1 ming nafari yoki 49,9 % o'quvchi va talabalar hissasiga to'g'ri keladi.


Yil oxiriga asosiy fond eksponatlari soni 110 347 ta bo'lib, ulardan 1243 tasi noyob eksponatlar hisoblanadi. Qadimiy arxeologiya buyumlari soni 42 213 ta bo'lib, ular jami eksponatlarning 38,3 % ni tashkil etadi

MUZEYDAGI EKSPONATLAR SONI, (birlik)



Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI FAOLIYATI, (birlik)



Andijon viloyati bo'yicha 2021-yilda 23 ta madaniyat va istirohar bog'lari faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy yer maydoni 426,6 gektardan iborat.

Andijon shahrida joylashgan A.Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i, "Bog'i Bobur" dam olish maskani va bolalar madaniyat va istirohat bog'lari viloyatdagi eng gavjum madaniyat muassasalari hisoblanadi.

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI SONI, (birlik)



2021-yil

23

2020-yil

22

2019-yil

27

2018-yil

26

2017-yil


26



Andijon viloyati faoliyat ko'rsatayotgan 23 ta madaniyat va istirohat bog'larining umumiy yer maydoni 426,6 gektardan iborat. Ulardagi dam olish maskanlari soni 91 ta bo'lib, turli hildagi 254 ta ko'ngilochar atraksionlar o'rnatilgan. Yil davomida madaniyat va istirohat bog'lariga jami 342,1 ming nafar aholi madaniy dam olish uchun tashrif buyurgan.

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARI SONI, (birlik)



Andijon viloyati bo'yicha 2021-yilda 66 ta madaniyat va dam olish maskanlari faoliyat ko'rsadi. Ulardan 30 tasi namunaviy tipdagi muassasalar hisoblanadi. Tomosha va ma'ruza zallaridagi o'rinlar soni 10,6 ming nafar tomoshbinga mo'ljallangan, hamda 179 ta turli xildagi to'garak va mashg'ulotlar o'tkazish uchun xonalar tashkil etigan.

Yil davomida madaniyat markazlari tomonidan 3926 ta turli tuman madaniy-ma'rifiy mavzudagi tadbirlar o'tkazilgan.

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDA MADANIYAT VA
AHOLI DAM OLISH MARKAZLARI TOMONIDAN
O'TKAZILGAN TADBIRLAR SONI, (birlik)



Ommaviy madaniy-ma'rifiy va
sport tadbirlari

1034

Mavzuli, adabiy-badiiy kechalar

1635

Teatrlashtirilgan tomoshalar
va xalq sayillari

188

Konsertlar

1069

2021-yilda madaniyat va dam olish markazlari tomonidan jami 3926 ta turli mavzudagi tadbirlar o'tkasilgan. Jumladan 1034 ta ommaviy madaniy-ma'rifiy tadbirlar, 1635 ta mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, 188-ta teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayillari va 1069 ta konsert dasturlari. Ushbu o'tkazilgan tadbirlardan 1154 tasi yani 29,4 % 18 yoshgacha bo'lgan aholi uchun tashkil etilgan.

Ushbu tadbirda ishtirokchilar soni jami 960,8 ming nafarni tashkil etgan. Ishtirokchilarning 23,3 ming nafari 18 yoshgacha bo'lgan yoshlardan iborat.

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDAGI AXBOROT KUTUBXONA MARKAZLARI FAOLIYATI



Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan axborot kutubxona markazlari soni jami 29 ta tashkil etdi. Ulardagi mavjud kitob va jurnallar soni 6985,2 ming nusxadan iborat. Axborot kutubxona markazi xizmatidan foydalanuvchi kitobxonlar soni jami 308,1 ming nafarni tashkil etadi.

Qishloq joylarda joylashgan Axborot kutubxona markazlari soni 7 ta bo'lib, ularda mavjud kitob va jurnallar soni 2268,1 ming nusxadan iborat. Foydalanuvchi kitobxonlar soni 83,1 ming nafarni tashkil etadi. Ularga yil davomida 2314,9 ming nusxadagi kitob va jurnallar foydalanishga berilgan.



Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDAGI AXBOROT KUTUBXONA MARKAZLARINING KITOB FONDI



Shahar va tumanlar	Axborot kutubxona markazlari soni, (birlik)	Kitob fondi (ming nusxa)	Foydalanuvchilar (ming kishi)
Andijon viloyati	29	6985,2	308,1
<i>shaharlar</i>			
Andijon	12	1912	106,6
Xonobod	1	312,2	10,3
<i>tumanlar</i>			
Andijon	2	475,2	19,2
Asaka	1	64,7	10,9
Baliqchi	1	352,8	15,4
Bo'ston	1	315,9	12,7
Buloq boshi	1	320,5	12,3
Jalaquduq	1	334,7	13,1
Izboskan	1	318	12
Oltinko'l	1	317,6	11,5
Marxamat	1	319	14
Ulug'nor	1	342,1	8,2
Xo'jaobod	1	316,7	11,3
Paxtaobod	1	314,1	12,4
Qo'rg'ontepa	2	646,2	24,4
Shahrixon	1	323,5	13,8

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

ANDIJON VILOYATIDAGI AXBOROT KUTUBXONA MARKAZLARI Dagi KITOB FONDISONI, (birlik)

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan axborot kutubxona markazlaridagi kitob fondi jami **6 985,2** ming nusxadan iborat bo'lib, ulardan **3 290,0** ming nusxadagisi davlat tilida, **3 600,9** ming nusxasi rus tilida va qolgan **94,3** ming nusxasi boshqa tillardagi kitob va jurnallar hisoblanadi.



Eslatma: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi **"O'zbekiston aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni takomillashtirish to'g'risida"**gi PQ-4354 sonli qaroriga binoan O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2019-yil 10-iyuldagi **"Akademik litsey qoshida faoliyat ko'rsatayotgan barcha Axborot resurs markazlarini tugatish to'g'risida"**gi 612-son buyrug'iga asosan umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari qoshida faoliyat ko'rsatayotgan Axborot resurs markazlarini tugatib, yangi Axborot kutubxona markazlari tashkil etilgan

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

AXBOROT KUTUBXONA MARKAZLARI KITOB FONDINING TURLARI , (ming nusxa)



Jami kitob va jurnallar – 6985,2



Bosma kitoblar-2006,9



Elektron kitoblar - 4952,2



Audio va vizual materiallar – 3,1



Lui Brayl shriftidagi nashrlar-12,5



Audio kitoblar - 10,5

Axborot kutubxona markazidagi jami 6 985,2 ming nusxadagi kitoblardan 2 006,9 ming nusxasi bosma kitoblar, 4 952,2 ming nusxadagisi elektron kitoblar, 3,1 nusxadagisi audio va vizual materiallar, 12,5 ming nusxadagisi Lui Brayl shriftidagi nashrlar va qolgan 10,5 ming nusxadagisi audio kitoblar dan iborat.

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Madaniyat - inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros - bu xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga etkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, ob'ektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros ob'yektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros ob'yektlari.

Moddiy madaniy meros ob'yektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

Nomoddiy madaniy meros ob'yektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar”.

Ansambllar — tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasini va bog'liq san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar).

Diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.

Madaniyat va san'at muassasalarining asosiy statistik ko'rsatkichlari

*Press-relizni tayyorlash uchun
mas'ul:*



Andijon viloyati statistika boshqarmasi



Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Manzil: Andijon shahar, Milliy tiklanish - 36-a



Телефон: (74) 224-82-69



andstat@umail.uz